# 2019-yil 1-oktabr holatiga yuridik shaxs bo’lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



**2019 yil 1 oktabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 42283 tani tashkil etadi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 36842 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 7421 ta yangi tashkil etildi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 30967 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 7124 ta yangi tashkil etildi**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 1066 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda**

**O'tgan yilga nisbatan 102 ta korxona va tashkilotlar tugatilishi ko'payganligi kuzatilgan**

| 42283 | 36842 | 7421 |
|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilganlar |

# 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili. birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

JAMI 7421

Oilaviy korxonalar 682

Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 5322

Xususiy korxonalar 1077

Boshqalar 340



2019-yilning yanvar-sentabr oylarida 7421 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-oktabr holatiga 42,3 mingta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 24,7 % - savdo, 19,6 % - sanoat, 10,9 % - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 8,0 % - qurilish, 7,8 % - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar,  3,5 % - tashish va saqlash, 1,5 % - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 22,6 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha (10445 ta) savdo, (8301 ta) sanoat, (4592 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, (3370 ta) qurilish, (3317 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (1479 ta) tashish va saqlash, (653 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (590 ta) axborot va aloqa hamda (9536 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 36,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,4 mingta (21,1 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4084 ta), Qibray (3437 ta) Toshkent (2562 ta) va Yangiyo'l (2030 ta) tumanlari hamda Angren (2262 ta), Chirchiq (2123 ta) shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (878 ta), Oqqo'rg'on (924 ta), Piskent (979 ta) tumanlari hamda Ohangaron (884 ta) va Nurafshon (947 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-sentabr oylarida 7421 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo’lib, bu ko’rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 3221 taga ko’pdir.



2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

**Savdo** 35,9 %

**Sanoat** 20,9 %

**Qurilish** 9,8 %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi** 9,4 %

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** 7,8 %

**Tashish va saqlash** 3,7 %

**Axborot va aloqa** 1,3 %

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** 1,1%

**Boshqa turlari** 9,8 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko’p savdo (2667 ta), sanoat (1552 ta), qurilish (725 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (697 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish (83 ta), axborot va aloqa (96 ta) hamda tashish va saqlash (274 ta) faoliyat turlari hissasiga to’g’ri kelgan.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 2667 |
| Sanoat | 1552 |
| Qurilish | 725 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 697 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 578 |
| Tashish va saqlash | 274 |
| Axborot va aloqa | 96 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 83 |
| Boshqa turlari | 749 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (1159 ta), Qibray (629 ta), Toshkent (512 ta) tumanlari va Angren (487 ta) shahri hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Piskent (145 ta), Ohangaron (153 ta), Oqqo'rg'on (192 ta) tumanlari hamda Ohangaron (141 ta), Nurafshon (191 ta) shaharlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar soninig o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 31,2 mingtani tashkil qildi

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1066 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 284 taga yoki 36,3 % ga o’sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog’iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**







Faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Xitoy Xalq Respublikasiga - 26,8 %, Rossiya Federatsiyasiga - 15,0 %, Turkiya Respublikasiga - 12,1 %, Qozog’iston Respublikasiga - 10,0 % va Janubiy Koreya Respublikasiga - 7,5 % to’g’ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019-yil 1-oktabr holatiga**



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 577 tasi qo'shma, 489 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 131 ta (jamidagi ulushi 12,3 %), Qibray 106 ta (9,9 %), Yuqorichirchiq 84 tani (7,9 %) tumanlarida va Angren 85 ta (8,0 %), Chirchiq shaharlarida 74 ta (6,9 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka, Bekobod 7 tadan (0,7 %), Oqqo'rg'on 9 ta (0,8 %), Piskent, 15 ta (1,4 %), Chinoz tumanlarida 16 tadan (1,5%) hamda Bekobod shahrida 18 ta (1,7 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 224 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga ko’paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 71 ta, Rossiya Federatsiyasi-31 ta, Qozog’iston Respublikasi - 30 ta, Turkiya Respublikasi-22 ta va Koreya Respublikasi – 15 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

**118 ta** — Sanoat

**42 ta** — Savdo

**22 ta** — Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

**16 ta** — Qurilish

**5 ta** — Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**3 ta** — Tashish va saqlash

**2 ta** — Axborot va aloqa

**2 ta** — Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**14 ta** — Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 118 ta, savdoda 42 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 22 ta hamda 16 ta qurilish va 26 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda**



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 30,9 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 7,1 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 83,7 foizga ko'paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi 2019 yil 1 oktabr holatiga

| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | 11,7 % | Piskent tumani | 2,5 % |
| Qibray tumani | 9,4 % | Chinoz tumani | 2,5 % |
| Toshkent tumani | 7,4 % | Ohangaron shahri | 2,5 % |
| Angren shahri | 6,1 % | Nurafshon shahri | 2,4 % |
| Chirchiq shahri | 5,7 % | Oqqo'rg'on tumani | 2,4 % |
| Yangiyo'l tumani | 5,6 % | Ohangaron tumani | 2,3 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 30,9 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 8,9 mingta (28,6 %) – savdo, 7,2 mingta (23,1 %) - sanoat, 3,9 mingta (12,6 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 2,9 mingta (9,3 %) - qurilish, 2,7 mingta (8,8 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 1,3 mingta (4,1 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 mingta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,3 mingtasi (10,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

9,6



**Sanoat**

21,7



**Qurilish**

10,2



**Savdo**

37,4



**Tashish va saqlash**

3,8



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

8,1



**Axborot va aloqa**

1,0



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

1,2



**Boshqa turlari**

6,9



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko’p savdo 2665 ta, sanoat 1549 ta, qurilish 725 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 692 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 73 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 82 ta hamda tashish va saqlashda 274 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (1138 ta), Qibray (607 ta), Toshkent (501 ta) tumanlari va Angren (470 ta) shahri hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Piskent (126 ta), Ohangaron (149 ta), Oqqo'rg'on (183 ta) Bekobod (196 ta) tumanlari hamda Ohangaron (132 ta) va Nurafshon (165 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,7 % yoki 840 tasi sanoat, 21,7 % yoki 484 tasi savdo, 20,3 % yoki 452 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,8 % yoki 264 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 23 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 16 tasi qurilish, 0,6 % yoki 13 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 % yoki 9 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 130 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda







## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**
**Xasan Igamberdiyev**
**Tel.:71-230-86-84**